

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALARI  
VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**«Tasdiqlayman»**

**Guliston davlat universiteti  
rektori M.Xodjiyev**

**04” 08 2023 y.**

**TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI OLIY TA’LIM  
MUASSASASI 60710200-BIOTEXNOLOGIYA (Oziq-ovqat,  
ozuqa, kimyo va qishloq xo’jaligi) BAKALAVRIAT TA’LIM  
YO‘NALISHIGA YAKKA TARTIBDAGI SUHBAT ORQALI  
QABUL QILISH UCHUN**

**BAXOLASH MEZONLARI  
VA KIRISH SUHBATI SAVOLLARI**

**Guliston – 2023 yil**

## Annotatsiya

Mazkur baholash mezonini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat jarayonlari uchun tuzilgan na'munaviy savollar mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish); shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari), tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Ushbu baholash mezonini Guliston davlat universiteti kengashi tomonidan tasdiqlangan.

2023 yil " 17 " 07 " 13 " sonli majlis bayoni.

## Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmonini ijro etish maqsadida qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Uzlüksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom;
- Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi;
- O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi;
- O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi.

Tizimida kollejlarda va texnikumlar bo'lgan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalariga tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ularning ustavlarini ishlab chiqish hamda ularning faoliyatini ularga muvofiq yo'lga qo'yish topshirildi.

Quyidagilar professional ta'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy AKTni tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;
- xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovasion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

Xulosa o'rnida, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.



## Hujjatlarni qabul qilish

1. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasasining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilish uchun har yili oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug'i bilan qabul komissiyasi tuziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) qabul komissiyasining raisi hisoblanadi.

2. Bitiruvchilar har yili 5 iyuldan 25 iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tadilar.

3. Bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatdan o'tishida tizimga shaxsiy ma'lumotlarini kiritishi va quyidagi hujjatlarni yuklashi talab etiladi:

pasport yoki ID-karta nusxasi;

texnikumni bitirganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning nusxasi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali bitiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari muvofiqlashtirilib boriladi.

4. Onlayn ro'yxatdan o'tgan bitiruvchilarning tizimga yuklangan hujjatlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan har yili 5 avgustga qadar o'rganib chiqiladi va o'rganish natijalari bo'yicha abituriyentlarning shaxsiy kabineti orqali ularga xabar beriladi.

5. Bitiruvchilar tomonidan topshirilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlanganda, u suhbatdan (talabalikka qabul qilingandan keyin aniqlansa, talabalikdan) chetlashtiriladi hamda hujjatlari belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

## Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

1. Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) har yili 10 avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

2. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translyasiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) zimmasiga yuklatiladi.

3. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10 avgustdan 25 avgustgacha, oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.



Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

4. Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

5. Savollar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

### **Texnikum bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida qabul qilish uchun BAHOLASH MEZONLARI**

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

- 1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.
- 2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).
- 3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).
- 4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollari mavjud bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 25 ball beriladi. Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

<b>T/r.</b>	<b>To'g'ri javob</b>	<b>Baho</b>	<b>Xususiy ball</b>
1	4	A'lo	90-100
2	3	Yaxshi	78-89
3	2	Qoniqarli	67-78
4	1	Qoniqarsiz	0-66



25 balldan Har bir savol uchun	Berilgan javobiga qo'yiladigan talablar
20-25 ball	Agar suhbat davomida talabgor tomonidan har bir savolning mohiyati Qonunlar, prezident farmonlari, Hukumat qarorlaridan foydalanilgan va har bir savolga oid muammolarni har tomonlama tahlil qilgan holda ochib berilgan hamda javoblarni tushunarli tarzda bayon etgan va ilmiy ma'lumotlarni umumlashtira olish salohiyatini namoyon etgan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob bergan. Savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilgan. Savolga javo berishda ijodiy yondoshilgan, javob mantiqiy yaxlitlikka erishilgan.
15-20 ball	Agar savolning mazmuni ochib berilgan, meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan, lekin savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etilmasa. Berilgan javobga to'g'ri javob berilgan. Savolning mazmuni to'liq yoritilgan. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
10-15 ball	Agar savolga javob berilgan bo'lsa, biroq fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatilsa, javoblar qonun hujjatlariga amaliyot tahliliga to'liq asoslanmagan bo'lsa, savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etmagan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri javob berilgan, lekin berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan. Misollar bilan asoslanmagan.
0-10	Agar talabgor tomonidan savolning mohiyati to'liq yoritib berilmasa, savolga tegishli qonunlar va amaliy materiallardan to'liq etarli darajada foydalanilmasa, hamda tahliliy xulosalar asoslanmagan bo'lsa. Berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob berilgan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Nizomga 2-**ilovaga** muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyasiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyasiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.



Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bo'ysunuvchi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

### **Suhbat jarayonida beriladigan namunaviy savollar to'plami**

#### **60710200-BIOTEXNOLOGIYA (Oziq-ovqat,ozuqa, rimy ova qishloq xo'jaligi) BAKALAVRIAT YO'NALISHI UCHUN KIRISH SUHBATI SAVOLLARI**

##### **I.Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish**

- 1.O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat biotexnologiyasi sohada qanday islohotlar olib borilmoqda.
- 2.Klaster tizimi haqida ma'lumot bering.
- 3.Fermer xo'jaliklari qanday afzallik tomonlari bor.
- 4.Viloyatda qishloq xo'jaligiga oid qanday klasterlarni bilasiz.
5. O'zbekistonning qishloq xo'jalik va oziq ovqat sanoatining ekspert salohiyati qanday?
- 6.Mamlakatimizda biotexnologiya sohasini rivojlantirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda.
- 7.Oziq-ovqat biotexnologiyasida qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanilmoqda.
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida oziq ovqat sanoati biotexnologiyasining texnologiyalarning ahamiyati?
9. Oziq ovqat biotexnologiya sanoatining rivojlanish tarixi?
10. Oziq ovqat xavfsizligi sohasidagi muammolar ?
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7 iyldagi PQ-216-sonli "Agrar soxada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari" qarori mohiyati nimadan iborat?
12. Oziq ovqat biotexnologiyasi korxonalari uyushmasining vaziflari nimalardan iborat?
13. Oziq ovqat biotexnologiyasi sanoatni rivojlantirishning asosiy prinsipi nimalardan iborat?
14. Oziq ovqat xavfsizligi chora tadbirlarida Biotexnologiya sohasining qanday o'rni bor?
15. Biotexnologiya sohasini rivojlanishida halqaro hamkorlikning qanday o'rni bor?
16. Oziq ovqat biotexnologiyasi sanoat uyushmasining asosiy maqsad nimadan iborat ?
17. Qishloq xo'jaligida yerlardan samarali foydalanish deganda nimani tushunasiz?
18. Biotexnologiya sohasida axborot texnologiyalarning qanday o'rni bor?
19. Oziq ovqat biotexnologiyasi mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'yiladigan talablar nimalarni o'z ichiga oladi?

20. Qishloq xo'jalik xom ashyosida o'z joyida dastlabgi ishlov berish qanday amalga oshiriladi?
21. Oziq-ovqat biotexnologiyasi sanoati uyushmasi tarkibidagi go'sht, sut tarmoqlari korxonalarini vazifalari?
22. Oziq-ovqat biotexnologiyasi mahsulotlari asosan qanday xo'jalik mahsulotlaridan tayyorlanadi?
23. Oziq ovqat biotexnologiyasi sanoatida dastlabki xomashyoga nisbatan ko'proq va tezroq buziladigan ishlab chiqarishlarga nimalar kiradi?
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi" mohiyati nimadan iborat?
25. O'simlik va hayvonot xom ashyosi tasnifi va ulardan foydalanish?
26. Biolaboratoriyalar haqida nimalarni bilasiz?
27. Daladan dasturxongacha (iste'molgacha) tamoyili haqida bilasizmi?
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra ta'lim qanday islohotlar amalga oshiriladi?
29. Oziq ovqat biotexnologiyasi sanoatini joylashtirish va rivojlantirishning asosiy omillari nimalar tashkil etadi?
30. Qishloq xo'jaligi ekinlarida yuqori hosil olishda klasterlarning qanday o'rni bor?
31. Respublika oziq ovqat biotexnologiyasi sanoatini rivojlantirish va boshqaruvini takomillashtirish deganda nimalarni tushunasiz?
32. Oziq ovqat biotexnologiyasi va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish dasturiga nimalar maqsad qilingan?
33. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda nechta oliy talim muassasalari mavjud?
34. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni va Kadrlar tayorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan ?
35. Konsepsiyada oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030 yilgacha necha foizga yetkazish ko'zda tutilgan?
36. O'zbekiston Respublikasida oliy talimni rivojlantirish konsepsiyasi nechanchi yilga qadar belgilangan?
37. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayorlash milliy dasturi nechta bo'limdan iborat ?
38. Xarakatlar strategiyasi qanday g'oyalarni o'z ichiga olgan va ularning tavsifi?
39. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy talim tuzilmasi qanday?
40. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida kredit-modul tizimini joriy qilishga oid qanday fikrlar bildirilgan?
41. Kredit-modul tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi uchun nimaga kerak?
42. Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini aniqlash, me'yoriy hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish?



43. O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi bakalavriati xorijdagi bakalavriatdan nimasi bilan farqlanadi?
44. O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim tuzilmasining kredit-modul tizimiga mos jihatlarni sanab bering?
45. Mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish borasida olib borilayotgan amaliy tajribalar olib borilmoqda.
46. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirish istiqbollarga qanday imkoniyatlarini bilasiz?
47. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini eksport qilish istiqbollarga qanday imkoniyatlarini bilasiz?
48. Kredit-modul tizimi joriy etilishi bilan amaldagi oliy ta‘lim tizimida qanday xorijiy atamalar paydo bo‘ladi?
49. O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida kredit-modul tizimi qaysi xorijiy davlatlarning kredit tizimiga ko‘proq mos keladi?
50. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da kredit-modul tizimi elementlariga mos bo‘lgan qanday tadbirlar nazarda tutilgan?

## **II. Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish)**

1. Biotexnologiya ta‘lim yo‘nalishi tanlashingizni sababi nimada?
2. Xom ashyoni birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash korxonalar tasnifi?
3. Biotexnologiya ta‘lim yo‘nalishini bakalavriat bosqichida davom ettirishdan maqsad nima?
4. Oziq-ovqat sohada biotexnolog tayyorlashning qanday ahamiyati bor?
5. Biotexnolog qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaysiz?
6. Texnikumda biotexnologiyaga oid qanday fanlarni o‘zlashtirgansiz?
7. Oliy ma‘lumotli biotexnolog bo‘lishdan maqsad nima?
8. Biig‘ish sanoati korxonalari tavsifi va ularning asosiy va ikkilamchi mahsulotlari?
9. Sut ishlab chiqarish texnologiyasida qanday jarayonlar qo‘llaniladi?
10. Bu sohada qanday fanlarni o‘zlashtirish muhim deb hisoblaysiz?
11. Achitqili sut mahsulotlari va ularga qo‘yiladigan talablar?
12. Meva va sabzovot konservalarining turlari?
13. Uzumni qayta ishlash mahsulotlari tasnifi?
14. Non mahsulotlari tayyorlashdagi asosiy xom ashyolar tavsifi?
15. Non mahsulotlari tayyorlashdagi qo‘shimcha xom ashyolar tavsifi?
16. Non mahsulotlari ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar ketma-ketligi?
17. O‘zbekistonda oziq-ovqat va oziqa mahsulotlari biotexnologiyasi fanining rivojlanishida hissa qo‘shgan olimlar?
18. Xalq xo‘jaligi sohasida biotexnolog mutaxassisi asosan qaysi kasb egalari bilan hamkorlikda ishlaydi?

19. Biotexnologiyaning ob'ektlariga nima kiradi?
20. Sut va sut mahsulotlari ishlab chikarish biotexnologiyasi?
21. Sut-qatiq mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan mikroorganizmlar?
22. Biotexnolog mutaxassisligi kasbi nima uchun aholi uchun kerak deb hisoblanadi?
23. Mahalliy aholi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda nimalarni bilishini muhim deb o'ylaysiz?
24. Pivo ishlab chiqarish biotexnologiyasi?
25. Nima sababdan hozirgi vaqtda ekologik toza mahsulotlarga talab kuchayib bormoqda?
26. Spirt ishlab chiqarish biotexnologiyasi?
27. Biotexnolog kasbi nima uchun butun dunyo aholisi uchun kerak deb hisoblanadi?
28. Meva va sabzavotlarni fermentatsiya qilish?
29. Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
30. Oziq-ovqat va ozuqa fanining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
31. Fermentlar muxandisligi fanining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
32. Qanday mikroorganizm turlarini bilasiz?
33. Choy ishlab chiqarish texnologiyasi?
34. Kofe ishlab chiqarish?
35. Qand lavlagidan shakar ishlab chiqarish texnologiyasi?
36. Sanoat mikrobiologiyasi fanining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
37. Sharbatni quyushtirish va shakarni kristallash?
38. Biotexnologiya asoslari fanining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
39. Kraxmaldan glyukoza olish texnologiyasi?
40. Qo'ziqorinlarning kimyoviy tarkibi, oziqaviy qiymati va o'stirish usullari?
41. Farmasevtik biotexnologiyasi fanining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
42. Suv o'tlari oqsil manbai sifatida?
43. Biologik faol moddalar olish texnologiyasi fanining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
44. Istemol organik kislotalar ishlab chiqarish biotexnologiyasi?
45. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun foydalaniladigan aromatizatorlarning tarkibi?
46. Gen va xujayra muxandisligi fanining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
47. Tanlagan sohanigizning qanday istiqboli bor?
48. Tabiiy shirin ta'm beruvchi moddalar?
49. Sun'iy shirinlashtiruvchilar?
50. Shirin ta'm beruvchi moddalarni olish usullari?.

**III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)**



1. Biotexnolog kasbiga qiziqish qachon paydo bo'lgan.
2. Qanday shaxsiy yutuqlaringiz mavjud
3. Qanday to'garak va konferentsiyalarga qatnashgansiz.
4. Maktab, kollej va texnikumda qanday fanlarga qiziqqansiz.
5. Qaysi fanlardan eng yaxshi o'zlashtirgansiz.
6. Texnikumda o'qish, keyinchalik oliy talim muassalarida o'qish uchun qarorni qanday qabul qilgansiz.
7. Fan olimpiadasi va ko'rik tanlovlarda g'olib bo'lganmisiz.
8. Chet tilini bilish darajangiz qanday.
9. Axborot texnologiyalarini qay darajada o'zlashtirgansiz
10. Zamonaviy bilimlarga ega bo'lish uchun nima qilish kerak.
11. Biotexnolog qanday muammolarni hal qila olishi lozim deb hisoblaysiz?
12. To'g'ri qaror qabul qilish biotexnolog uchun qanday ahamiyati bor?
13. Biotexnolog o'z ustida ishlash uchun qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirishi lozim?
14. Qishloq xo'jaligini biotexnologiyasi deganda nimani tushinasiz?
15. Oziq-ovqat biotexnologiyasi sohasi bo'yicha hozirgi paytda qanday amaliy ko'nikma va tajribaga egasiz?
16. Ish boshqarish qobiliyati yoki rahbarlik qobiliyati deganda nimalarni tushunish mumkin. Rahbarda qaysi qobiliyatlar bo'lishi shart.
17. Konservantlar deganda nimani tushinasiz.
18. Oziqaviy bo'yoqlarning klassifikatsiyasi.
19. Biotexnolog kasbining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa kasblardan nimasi bilan farqlanadi?
20. Eng yaxshi biotexnolog o'z kasbining ustasi bo'lish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
21. Tabiiy bo'yoqlarni olishning biotexnologik usullari.
22. Gel xosil qiluvchi va quyultiruvchi moddalar..
23. Emulgatorlar va stabilizatorlar
24. Qishloq-xo'jaligida foydalaniladigan ferment preparatlari
25. Oziqaviy vitaminlar olish manbalari
26. Ozuqa vitaminlari ishlab chiqarish usullari
27. Asbob –uskunalarni sterillash
28. Ozuqa muhitlarini sterillash .
29. Mikroorganizmlarni ekish uchun ozuqa muhiti tayyorlash
30. Makkajo'xori ekstrakti nima
31. Soya uni
32. Biotexnologiyaning asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
33. O'zbekistonda biotexnologiyani rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlarin bilasizmi.
34. Mamlakatimizni ravnaqi, uning iqtisodiyotini yanada yuksaltirish maqsadida qaysi biopreparadlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi zarur.

35. Gen muxandisligini mohiyati va vazifalari.
36. Tuproqmikrobiologiyasi va uning vazifalari
37. Bakterial o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasi
38. Xayvonlar ko'payishini endokrin nazorati
39. Xujayra biotexnologiyasi.
40. Beteniar medisinada biotexnologiya.
41. Aminokislotalar ishlab chiqarish.
42. Oqsil preparatlari ishlab chiqarish.
43. Bug'doy donlaridan qanday biotexnologik mahsulot olinadi.
44. Ichimlik suvlari biotexnologiyasi
45. Startap loyihalar nima?
46. Biotexnologiya sohaga qanday innavatsion texnologiyalarni qo'llashni taklif etasiz?
47. Biotexnologiya sohada qaysi davlatlarni ilg'or deb hisoblaysiz?
48. Universitetda qanday startap loyihalar ishlab chiqmoqchisiz?
49. Meva va sabzavotlardan qanday biotexnologik mahsulotlar olinadi.
50. Go'sht va go'sht mahsulotlari biotexnologiyasi.

#### **IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi**

1. Biotexnologik jarayonlarning xom ashyosi va ulardan olinadigan mahsulotlari?
2. Biotexnologiyada gen muhandisligi?
3. Hujayra va to'qimalar biotexnologiyasi?
4. Aminokislotalar ishlab chiqarish?
5. Organik kislotalar ishlab chiqarish?
6. Oqsil preparatlari ishlab chiqarish?
7. Turli tarkibli oziqa preparatlari ishlab chiqarish?
8. Biotexnologik jarayonlarning eng muhim biokimyoviy asoslari?.
9. Fermentlar
10. Ferment ishlab chiqarish biotexnologiyasi.
11. Biotexnologiya va bioxavfsizlik?
12. Biotexnologiya va ta'lim.
13. Fermentlarni ajratib olish va tozalash metodlari
13. Kislород va suv.
14. Mikroorganizmlarni o'stirish uchun oziqa muhitlari.
15. DNK, RNK va oqsil molekulalarining biosintezi?
16. Qishloq xo'jalik hayvonlarining ko'payishini biotexnologik nazorat qilish
17. Hayvonlarning ko'payishini endokrin nazorati
18. Hayvonlarning jinsiy davr (tsikl)ini boshqarish
19. Hayvonlarni klonlash
20. Gen muhandisligi yo'li bilan transgen hayvonlar yaratish
21. Transgen hayvonlar yordamida amalga oshiriladigan, sut tarkibidagi sifat o'zgarishlari
22. Oziqa mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish biotexnologiyasi
23. Sabzavotlarni fermentatsiya qilish
24. Pishloq tayyorlash
25. Alkogolli ichimliklar



26. Oziq-ovqat sanoati chiqindilari
27. Vitaminlar
28. Ta'm beruvchi qo'shimcha moddalar
29. Sun'iy ovqat tayyorlashda zamonaviy yo'nalishlar
30. Sifatni baholash
31. Fermentatsiya
32. Sirka kislota ishlab chiqarish
33. Limon kislota ishlab chiqarish
34. Sut kislotasi ishlab chiqarish
35. O'simliklardan olinadigan oqsil konsentratlari
36. Oqsil-vitaminli preparatlar ishlab chiqarish
37. Fermentli oziqa preparatlari
38. Spirtli bijg'ish
39. Sut kislotali bijg'ish
40. Chumoli kislotali bijg'ish
41. Fotosintez
42. Fermentlarni ajratish.
43. Fermentlarni oqsil muhandisligi.
44. Biotexnologiya va biomuhandislikda standartlash
45. Biotexnologiya sohasida malakali kadrlar tayyorlash tarixi, buguni va istiqbollari
46. Tirik mikroorganizmlarni patentlash mumkinmi?
47. Fermentlar ishlatiladigan sohalar.
48. Mikroorganizmlar asosida biotexnologik jarayonlar yaratish usullari
49. Xavfsizlik haqida umumiy tushunchalar
50. Biotexnologiya va biomuhandislikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarga jahon hamjamiyatlarining qarashlari

**Oziq-ovqat texnologiyalari  
kafedrasi mudiri**



**K.K.Sattarov**